

jalb etish imkonini beradi. Fikrimizcha, fond bozorida qimmatli qog'ozlarning muntazam aylanishi– mamlakat moliya tizimini tubdan modernizatsiya qilishni rag'batlantiradi. Chunki, qimmatli qog'ozlar fond bozorining iqtisodiy faollik indikatorini hisoblanib, ishlab chiqarish korxonalari, xizmat ko'rsatuvchilar, tijorat banklari, fond birjalari, investitsiya fondlari va aholi o'rtasida kapitalning samarali xarakatini ta'minlaydi.

Iqtisodiyotda fond bozorining rolini ikki tomonlama ko'rib chiqish mumkin: birinchisi, fond bozorining iqtisodiyotdagi rolini hamda qimmatli qog'ozlar instrumentlarining ijtimoiy-iqtisodiy samaradorligini oshirish jihatidan; ikkinchisi, fond bozori yordamida ijtimoiy-iqtisodiy xususiyatga ega bo'lgan qator muhim muammolarni hal etish nuqtai nazaridan.

Fond bozorini davlat tomonidan tartibga solish – bu fond bozoridagi jarayonlar rivojlanishining yo'nalishlarini aniqlash, yo'lga qo'yish va ma'lum tizimga solishga qaratilgan maqsadli yo'naltirilgan harakatlarni anglatadi va bevosita (to'g'ridan-to'g'ri) hamda bilvosita usullar yordamida fond bozori davlat tomonidan tartibga solinadi.

Jahon tajribasidan ma'lumki, qimmatli qog'ozlar moliyaviy resurslarni to'plash, kapital byudjetni tuzish, investitsiya portfelini shakllantirish, moliyaviy risklarni taqsimlash va boshqarish, mulkchilik munosabatlarini rivojlantirish, oldi-sotdi munosabatlarining vositasi sifatida ishtirok etib, bozorni qayta taqsimlash, davlat va AJlar (korporatsiyalar) qarzlarni moliyalashtirish maqsadida chiqariladi. Mamlakatimizda to'plangan tajriba ishlab chiqarish infratuzilmasini kengaytirish va modernizatsiya qilish uchun turli korxonalar, tashkilotlar mablag'lari va aholining shaxsiy jamg'armalarini faol investitsiyalash imkoniyatlari yuzaga keltirilayotganligini tasdiqlaydi.


XO'JALIK YURITUVCHI SUB'EKTLAR MOLIYAVIY BARQARORLIGINI TA'MINLASHDA MOLIYALASHTIRISHNING ZAMONAVIY USULLARIDAN FOYDALANISH

Bauyetdinov M.J.
TDIU, PhD, dotsent
Janizakova Sh.M.
TDIU, assistent

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-sonli Farmoni bilan tasdiqlangan Yangi O'zbekistonning 2022-2026-yillarga mo'ljallangan Taraqqiyot strategiyasida milliy iqtisodiyot barqarorligini ta'minlash va yalpi ichki maxsulotda sanoat ulushini oshirishga qaratilgan sanoat siyosatini davom ettirib, sanoat maxsulotlarini ishlab chiqarish hajmini 1,4 baravarga oshirish, mamlakatda investitsiya muxitini yanada yaxshilash va uning jozibadorligini oshirish, kelgusi besh yilda 120 milliard AQSh dollari, jumladan 70 milliard dollar xorijiy investitsiyalarni jalb etish choralarini ko'rish, tadbirkorlik faoliyatini tashkil qilish va doimiy daromad manbalarini shakllantirish uchun

sharoitlar yaratish, xususiyl sektorning yalpi ichki maxsulotdagi ulushini 80 foizga va eksportdagi ulushini 60 foizga yetkazish milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirish va yuqori o'sish sur'atlarini ta'minlashning ustuvor yo'nalishlari sifatida e'tirof etilgan¹⁷⁰. Bu esa, xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning likvidligi va moliyaviy barqarorligini ta'minlash zaruriyatini yuzaga keltiradi.

Dissertatsion tadqiqotning ikkinchi bobida amalga oshirilgan taxlillar respublikamizda xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning likvidligi va moliyaviy barqarorligini ta'minlash bilan bog'liq bo'lgan dolzarb muammolarning mavjudligini ko'rsatdi. Ana shunday dolzarb muammolardan biri – bu iqtisodiyotda to'lovsizlik muammosining mavjudligi sabab xo'jalik yurituvchi sub'ektlar o'rtasida katta miqdordagi debitor qarzdorlikning mavjudligidir.




1-rasm. O'zbekiston Respublikasida xo'jalik yurituvchi sub'ektlar o'rtasidagi debitor qarzdorlik miqdori, trln. so'm¹⁷¹

1-rasm ma'lumotlaridan ko'rinadiki, respublikamizda xo'jalik yurituvchi sub'ektlar o'rtasidagi debitor qarzdorlikning miqdori 2019-2023-yillarda katta miqdorda bo'lib, 2020-2023-yillarda o'sish tendensiyasiga ega bo'lgan.

Fikrimizcha, respublikamizda xo'jalik yurituvchi sub'ektlar o'rtasidagi debitor qarzdorlikning miqdori mamlakat iqtisodiyotining pul mablag'lari bilan ta'minlanganlik darajasining past ekanligi, xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning tijorat banklari kreditlaridan foydalanish darajasining past ekanligi, ularning joriy aktivlari xajmida pul mablag'larining ulushini past ekanligi kabi jiddiy omillar bilan izoxlanadi.

¹⁷⁰ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-sonli Farmoni. Yangi O'zbekistonning 2022-2026 yillarga mo'ljallangan Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida//www.lex.uz.

¹⁷¹ Rasm muallif tomonidan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligining rasmiy statistik ma'lumotlari asosida tuzilgan.



2-rasm. O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotining pul mablag'lari bilan ta'minlanganlik darajasi, foizda¹⁷²

2-rasm ma'lumotlaridan ko'rinadiki, respublikamiz iqtisodiyotini pul mablag'lari bilan ta'minlanganlik darajasi 2019-2023 yillarda nisbatan past bo'lgan. Buning ustiga, ushbu ko'rsatkichning darajasi 2023-yilda 2022-yilga nisbatan sezilarli darajada pasaygan.

Mamlakat iqtisodiyotini pul mablag'lari bilan ta'minlanganlik darajasi past bo'lgan sharoitda xo'jalik yurituvchi sub'ektlar o'rtasidagi debitor qarzdorlik muammosini xal qilishning iloji yo'q.

Mamlakat iqtisodiyotini pul mablag'lari bilan ta'minlanganlik darajasining past ekanligining yana bir muhim sababi – xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning tijorat banklari kreditlaridan foydalanish darajasining past ekanligidir.

1-jadval

“O'zkimyosanoat” AJ jami majburiyatlari va tijorat banklarining kreditlari bo'yicha majburiyatlari, mlrd. so'm¹⁷³

Ko'rsatkichlar	2019y.	2020y.	2021y.	2022y.	2023y.
Majburiyatlar – jami	114,8	38,5	37,4	522,2	39,7
shu jumladan:					
Tijorat banklarining kreditlari bo'yicha majburiyatlar	81,5	0	0	0	0

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinadiki, 2020-2023-yillarda “O'zkimyosanoat” AJ majburiyatlarining tarkibida tijorat banklarining kreditlari bo'yicha majburiyatlar bo'lmagan.

¹⁷² Rasm muallif tomonidan O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida tuzilgan. <https://stat.uz/uz/>

¹⁷³ Jadval muallif tomonidan “O'zkimyosanoat” AJ ma'lumotlari asosida tuzilgan.

Respublikamizda xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning likvidliligi va moliyaviy barqarorligini ta'minlash bilan bog'liq bo'lgan quyidagi dolzarb muammolar aniqlandi:

- iqtisodiyotda to'lovsizlik muammosining mavjudligi sabab xo'jalik yurituvchi sub'ektlar o'rtasida katta miqdordagi debitor qarzdorlikning mavjudligi;

- xo'jalik yurituvchi sub'ektlarda aktivlarning rentabellik darajasini past ekanligi va tannarxning tushum xajmidagi salmog'ining nisbatan yuqori ekanligi;

- respublikamizda qimmatli qog'ozlar bozori rivojlanmaganligi tufayli xolat xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning qimmatli qog'ozlar bozoridan resurslar jalb qilish va o'zlarining likvidliligini qimmatli qog'ozlarga investitsiya qilish orqali ta'minlash imkoniyatini cheklanganligi.

Respublikamizda xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning faoliyatini noan'anaviy manbalar xisobidan moliyalashtirishni takomillashtirish uchun quyidagi tadbirlarni amalga oshirish lozim:

- kradfanding va kraudsorsingdan foydalanishning me'yoriy-xuquqiy asoslarini yaratish lozim;

- forfeytingdan foydalanish imkoniyatini yaratish uchun trattalar muomalasini joriy qilish lozim;

- faktoringdan foydalanish ko'lamini kengaytirish uchun, birinchidan, xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning joriy likvidlilik darajasini oshirish kerak; ikkinchidan, to'lovi kechiktirib sotilgan tovarlar kreditga sotilgan deb tan olinishi kerak.

Xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning investitsion xarajatlarini moliyalashtirishni takomillashtirish maqsadida, birinchidan, korxonalarning uzoq muddatli qimmatli qog'ozlarining investitsion jozibadorligini ta'minlash kerak; jalb qilinayotgan xalqaro kreditlarning umumiy xajmida qat'iy belgilangan stavkada jalb qiligan kreditlarning salmog'ini oshirish zarur; uchinchidan, korxonalarning likvidliligi va moliyaviy barqarorligini tavsiflovchi ko'rsatkichlarning me'yoriy darajasini ta'minlash orqali ularning tijorat banklari kreditlaridan foydalanish darajasini oshirish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-sonli Farmoni. Yangi O'zbekistonning 2022-2026 yillarga mo'ljallangan Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida//www.lex.uz.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga murojaatnomasi. – T.: O'zbekiston, 2018. - 80 b.

3. Veselovskiy M.Ya. Kraudfanding v Rossii: sostoyanie i vozmozhnosti stimulirovaniya innovatsionnykh startapov // Innovatsionnoe razvitie ekonomiki. – 2016. – № 2(32).

4. Rogova A.V. Kraudsorsing kak instrument sotsialno-ekonomicheskogo razvitiya regiona//Sovremennye problemy nauki i obrazovaniya. – Moskva,2013. - № 5. – S. 27-32.

5. Majidov J.K. O'zbekiston Respublikasi tijorat banklari aktivlar portfellarining sifatini oshirish yo'llari. I.f.b. f.d. diss. avtoref. – Toshkent, 2020. – B. 22.

6. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida tuzilgan. <https://stat.uz/uz/>

7. "O'zkimyosanoat" AJ. Moliyaviy natijalar to'g'risida hisobot//<https://uzkimyosanoat.uz>

FINANCIAL TECHNOLOGIES ARE PLAYING A SIGNIFICANT ROLE IN THE ONGOING DEVELOPMENT AND EVOLUTION OF THE INTERNATIONAL FINANCIAL MARKET

Gulmurodova M.O.

TSUE of student

Fozilchayev SH.Q.

Scientific supervisor, dots.

Abstract. This article analyzes the interrelationship between financial technologies and the international financial market. The role of financial technologies in increasing the efficiency of financial services, the segments of the international financial market and their contribution to their development, as well as the prospects for the development of financial technologies in the context of Uzbekistan are highlighted. In order to improve the economic development of our country, it is highlighted that the issues of improving the financial system and achieving high macroeconomic indicators are of great importance, and the President of the Republic of Uzbekistan "On additional measures for the transition to international standards of financial reporting", the requirements of decision PD-4611 of February 24, 2020 are stated. The thesis examines ways of increasing the country's economic stability through the use of international experiences and the analysis of global trends in the field of financial technologies.

Keywords: Financial technologies, international financial market, FinTech, international reporting standards, investment, blockchain, digital payment systems, cryptocurrencies, international financial market segments.

Introduction.

The international financial market (IFM), a complex web of institutions, instruments, and regulations spanning national borders, has long been a critical engine of global economic growth. Its efficiency, stability, and inclusivity are paramount to facilitating cross-border investment, trade, and capital flows. In recent years, a disruptive force has emerged, promising to reshape the IFM in profound ways: financial technology, or FinTech. FinTech, encompassing a broad spectrum of technological innovations applied to financial services, is no longer a nascent trend but a key driver of the ongoing development and evolution of the IFM, bringing both unprecedented opportunities and novel challenges. One of the